




RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **325,2 mlrd.so'mni**, o'sish **0,5 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **105,1 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **25,6 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **30,5 %**

2018 yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 325,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibi ko'proq elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va xavoni konditsiyalash korxonalarinigi ulushiga to'g'ri keladi (49,5 foiz). Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning oshishiga qayta ishlash sanoati xam munosib xissa qo'shdi (sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 49,5 foiz).

2018 yil yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 160,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 49,5 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar oyida sanoatning mazkur tarmog'ida o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 32,8 % ga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek 2017 yilning yanvar oyiga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sishi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmokda: to'qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechak, charm buyumlari ishlab chiqarish 0,9 % ga va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 8,1 % ga oshganligi kuzatildi.




**Yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| | 2017 yil | 2018 yil | 2017 yil yanvarga nisbatan, % |
|---|----------|----------|-------------------------------------|
| O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna | 1,2 | 0,7 | 58,9 |
| Paxta tolasi, ming tonna | 7,9 | 7,0 | 88,5 |
| Aroq – mig litr 100 % spirt | 73,8 | 90,5 | 122,6 |
| Elektr energiyasi, mlrd kvts | 1,8 | 1,6 | 92,8 |
| Paxta urug'i, ming tonna | 13,1 | 11,1 | 84,9 |
| Kalava ip, tonna | 450 | 374 | 83,1 |
| Sellyuloza, ming kg 90% | 103,6 | 118,2 | 114,0 |
| Un, ming tonna | 2,4 | 2,8 | 116,5 |
| Kunjara, ming tonna | 5,4 | 3,0 | 55,7 |

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 83,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar oyiga nisbatan 5,1 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 25,6 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 52,7 % dan 2018 yilning yanvar oyida 59,2 % ga oshishi kuzatilmoqda.


Yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 46,6 % ulushini), Sirdaryo tumani (15,3 %), Guliston shahri (8,3 %), Boyovut (5,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2018 yilning yanvar oyida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shu bilan birga eng kam ulush Xovos tumani (2.1 %), Mirzaobod tumani (2.6 %) va Sardoba tumani (3,5 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2018 yilning yanvar oyida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari


(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



2018 yilning yanvar oyida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 401,7 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi taxlil qilinganda, Shirin shahrida 8242,9 ming so'm, Sirdaryo tumanida 405,1 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2018 yilning yanvar oyida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

2018 yil yanvar oyida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 99,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 30,5 foizi) yoki 2017 yilning tegishli davriga nisbatan 103,7 foizni tashkil qilgan.

Tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoatdagi ulushi 2018 yil, 2017 yilning yanvar oyiga nisbati Mirzaobod tumanida 4,9 foiz birlikka o'sgan bo'lsa qolgan tuman va shaharlarda kamayish kuzatilgan.

